

MIGRATSIYA JARAYONLARINING ILMIY JARAYONGA TA'SIRI

Saydaliyeva Lazzat Muxtarali qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich talim fanlar nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

ABSTRACT

Migratsiya hozirgi kunda global miqyosda muhim jarayon hisoblanadi. Jahon bo'ylab migratsiyaning yo'nalishlari tahlil qilingan va bu jarayon davom etmoqda. O'zbekiston hududida migratsiya tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bo'lsa-da, bu soha bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar soni cheklangan va kam o'rganilgan. Mazkur maqolada migratsiya jarayonlarining kelib chiqishiga oid fikrlar va ilmiy faoliyatga ijobiy ta'siri haqida so'z boradi.

Migration is currently an important process on a global scale. The directions of migration around the world have been analyzed and this process continues. Although migration is developing rapidly in Uzbekistan, the number of studies conducted in this area is limited and little studied. This article discusses the ideas about the origin of migration processes and their positive impact on scientific activity.

Миграция в настоящее время является важным процессом в мировом масштабе. Проанализированы направления миграции по всему миру, и этот процесс продолжается. Хотя миграция в Узбекистане развивается быстрыми темпами, количество исследований, проводимых в этой области, ограничено и малоизученно. В данной статье рассматриваются представления о происхождении миграционных процессов и их положительном влиянии на научную деятельность.

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 26th May 2025

KEY WORDS:

Migratsiya, migrant, davlat, inson, xalqaro tashkilot, Aholi migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mayatniksimon migratsiya, xalqaro migratsiyasi.

Migration, migrant, state, person, international organization, Population migration, internal migration, external migration, pendulum migration, international migration.

KIRISH: Migratsiya jarayonlari insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan va hozirgi kunda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, madaniyat va ilm-fan sohalarida o'z ta'sirini davom ettirmoqda. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, yangi imkoniyatlar va resurslarga kirish, shuningdek, bilim va tajriba almashinuvi kabi jarayonlar, migratsiyaning ijobiy jihatlarini tashkil etadi. Ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ilmiy faoliyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Migratsiya orqali yangi g'oyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar mamlakatlarga kirib keladi, bu esa ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyiha ishlab chiqish jarayonlarini rag'batlantiradi. Xususan, ilmiy muassasalar va universitetlar o'rtasida xalqaro hamkorlikning kuchayishi, ilm-fan sohasidagi global tendensiyalarni o'rganish va ularga moslashishni ta'minlaydi.

Migratsiya (lotincha: migratio — ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman): aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi bu Aholi migratsiyasi. Hayvonlarning yashash muhiti sharoiti yoki rivojlanish sikli o‘zgarishi bilan bir geografik hududdan ikkinchisiga ko‘chishi. Mamlakat yoki boshqa hududiy birlik (tuman, viloyat) ichidagi migratsiya ichki deyiladi. Aholi qishloqlardan shaharlarga, bir viloyatdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tadi. Migratsiya jarayonlari faqat bir xil aholi punktiga odamlarni ko‘chirishni o‘z ichiga olmaydi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham migratsiyaga oid quyidagicha modda kiritilgan bo‘lib, har bir shaxs O‘zbekiston respublikasida erkin harakatlanish va undan tashqariga erkin holda chiqish huquqiga ega ekanligi hamda qonunda belgilangan cheklashlar bo‘lmagan taqdirda respublika hududiga kirishda va chiqishda to‘sqinlik bo‘lmasligi mustahkamlab qo‘yilgan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda PF-210-son “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2], 2020 yil 15 sentabrda PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida ham anan migratsiya masalasida davlatning o‘rni aks etadi.

Aholi migratsiyasi, murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning ta’siri iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Bizning davlatimiz uchun ham bu jarayon muhim ahamiyatga ega, chunki millionlab fuqarolarimiz ta’lim olish va mehnat qilish maqsadida chet elga ko‘chmoqda. Bunday migratsiya jarayonlari bir qator omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, ko‘plab odamlar o‘z mamlakatlarida mavjud bo‘lgan iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli, yaxshi ta’lim va ish o‘rinlari izlab chet elga yo‘l oladi. Ikkinchidan, global miqyosda bilim va malakalarni oshirish maqsadida xorijiy universitetlarda o‘qish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va yangi tajribalar orttirish imkoniyatlari ham mavjud. Shuningdek, emigratsiya jarayonlari davlatimiz iqtisodiyotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chet elda ishlayotgan fuqarolarimiz tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari (remittanslar) mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad keltiradi va oilalarning farovonligini oshirishga yordam beradi. Biroq, bu jarayonlar ba’zan ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin, masalan, oilalarning ajralishi, inson resurslarining yo‘qotilishi va boshqalar.

Mamlakatimizda migratsiya jarayonini ijtimoiy-gumanitar soha doirasida R.Madaliyeva, T.Saidbayev, K.Kalanov, A.Rasulov, N.Qurbonov va F.Parmonovlar o‘zlarining tadqiqotlarida qisman yoritgan. O‘zbekistonda migrant oilalar ijtimoiy-psixologik tarafdin birinchi bo‘lib H.Abdusamatov tomonidan, axloqiy-falsafiy jihatdan esa S.Alimov tomonidan o‘rganilgan [3].

Migratsiya jarayonida migrantlar boshqa madaniyatlar bilan tanishadilar va ularni qabul qilishga tayyor bo‘lishadi. Bu jarayon, albatta, ularning xulq-atvorida va qarashlarida o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Yangi qadriyatlar va urf-odatlar o‘zlashtirilishi natijasida, migrantlar o‘z vatanlariga qaytganda, bu yangi qadriyatlarni oilalarida va jamiyatlarida joriy qilishga intilishlari mumkin. Kelajak avlod uchun bu jarayon salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar kuchaygan davrda, o‘zlashtirilgan qadriyatlar va urf-odatlar milliy identitetni zaiflashtirishi yoki uning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi, milliy birlikni zaiflashtirishi yoki madaniy an’analarni yo‘qotish xavfini tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, davlatlar va jamiyatlar migratsiya jarayonini boshqarishda, migrantlarni qo‘llab-quvvatlashda va ularning madaniy identitetini saqlab qolishda muhim rol o‘ynashlari zarur. Buning uchun ta’lim, madaniy integratsiya va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish orqali, migrantlarning madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga yordam berish mumkin.

Iqtisodiy sabablar migratsiyaning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Odamlar ko‘pincha yaxshiroq ish imkoniyatlari, yuqori daromad yoki sifatli ta’lim olish maqsadida o‘z vatanlarini tark etadilar [5]. Shu bilan birga, migratsiya jarayoni davlatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Migrantlar o‘z mamlakatlariga qaytganlarida, ko‘pincha yangi tajribalar va bilimlar olib keladilar, bu esa ularning jamiyatidagi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Migratsiya jarayonlarining ilmiy jarayonga ta’siri ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Ular asosan bilim, malaka va tajriba almashinuvida ko‘rinadi. Bular:

1. Migratsiya jarayonlari olimlar va tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Turli davlatlardan kelgan mutaxassislar o‘z bilim va tajribalarini birlashtirib, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Bunday hamkorliklar ilmiy tadqiqotlar, texnologik rivojlanish va madaniy almashuv uchun foydali bo‘ladi.

Bundan tashqari, turli madaniyatlar va fikrlar almashuvi yangi qarorlar qabul qilishda va muammolarni hal etishda yangi yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayon global ilmiy hamjamiyatni yanada kuchaytiradi va ilm-fanning rivojlanishiga hissa qo'shadi [6]. Xalqaro ilmiy loyihalar soni ortadi, natijada innovatsion g'oyalar shakllanadi.

2. Migratsiya olimlar uchun bir qator yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonning asosiy afzalliklarini quyidagicha kengaytirish mumkin: Bilim almashinuvi, madaniy diversifikatsiya, global hamkorlik, resurslarga kirish, innovatsion rivojlanish, tarmoq yaratish, ta'lim va trening imkoniyatlari, ijtimoiy va siyosiy ta'sir. Migratsiya olimlar uchun nafaqat yangi imkoniyatlar, balki global ilmiy hamjamiyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shishi mumkin. Bu jarayon ilm-fanning rivojlanishi, innovatsiyalar va global muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

3. Yuqori malakali migrantlar ilmiy jamoalarning intellektual darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning o'ziga xos afzalliklari va tajribalari yuqori malaka va tajriba, turli yondashuvlar, hamkorlik va tarmoq yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, mentorlik va ta'lim hamda muammolarni hal qilish kabi jihatlarida namoyon bo'ladi. Migrant olimlar ko'pincha o'z sohalarida yetakchi mutaxassislar bo'lib, ular o'zlari bilan yangi bilimlar, tadqiqot metodologiyalari va innovatsion yondashuvlarni olib keladilar, bu esa jamoaning umumiy bilim darajasini oshiradi. Har bir mamlakatda ilmiy tadqiqotlar va ta'lim tizimlari o'ziga xosdir, shuning uchun migrant olimlar turli yondashuvlar va metodlarni olib kelish orqali jamoaning fikrlash doirasini kengaytiradi. Yuqori malakali migrantlar ko'pincha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, ularning mavjud aloqalari va tarmoqlari yangi tadqiqot imkoniyatlarini ochishi mumkin. Yangi g'oyalar va innovatsiyalarni olib kelish orqali migrant olimlar ilmiy jamoalarda ijodkorlikni oshiradi, bu esa yangi tadqiqot loyihalarini va innovatsion yechimlarni yaratishga olib kelishi mumkin. Ularning tajribalarini boshqa olimlarga, talabalar va yosh tadqiqotchilarga o'rgatish orqali professional rivojlanishga hissa qo'shadi.

4. Har xil ilmiy maktablar va an'analar o'rtasida hamkorlik rivojlanishi ilm-fanning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik bir necha jihatlarida foydali bo'lishi mumkin: g'oyalar almashinuvi orqali yangi g'oyalar va yondashuvlar keltirib chiqariladi, tadqiqot metodologiyalarini o'rganish va ulardan foydalanish orqali tadqiqotchilar o'z ishlarini samarali olib borishlari mumkin, kengaytirilgan tarmoq orqali yangi professional aloqalar o'rnatiladi, maqsadli loyihalar doirasida resurslar birlashtiriladi, ta'lim va mentorlik imkoniyatlari yaratiladi, shuningdek, global muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar taklif etiladi. Shu sababli, har xil ilmiy maktablar va an'analar o'rtasidagi hamkorlik ilm-fan sohasida rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

5. Ilmiy migratsiya ilg'or texnologiyalar va yangiliklarning bir davlatdan ikkinchisiga ko'chirilishida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi: g'oya va bilim almashinuvi, tadqiqot va rivojlanish, resurslar va infratuzilma, kross-madaniy yondashuv va global muammolarni hal qilish. Ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislar boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tishlari natijasida yangi g'oyalar va bilimlar tarqatiladi, bu esa yangi innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy migratsiya orqali tadqiqotchilar ilg'or ilmiy markazlar va universitetlarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu ularning tadqiqotlarini yanada rivojlantirish va yangi texnologiyalarni yaratish imkonini beradi. Ba'zi mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar uchun yaxshiroq infratuzilma va moliyaviy resurslar mavjud. Ilmiy migratsiya orqali mutaxassislar bu resurslardan foydalanib, o'z tadqiqotlarini yanada samarali olib borishlari mumkin. Turli madaniyatlardan kelgan tadqiqotchilar birgalikda ishlaganda, yangicha yondashuvlar va innovatsion fikrlar paydo bo'ladi, bu texnologik rivojlanishni tezlashtirishi mumkin. Ilmiy migratsiya orqali global muammolar, masalan, iqlim o'zgarishi yoki sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash imkoniyatlari oshadi.

6. Migratsiya, ayniqsa ilmiy sohada, turli xil madaniyatlar va tafakkur uslublarining bir-biriga kirib kelishiga katta hissa qo'shadi. Buning bir necha asosiy jihatlari mavjud: birinchidan, g'oya almashinuvi orqali turli madaniyatlardan kelgan tadqiqotchilar o'zlarining bilim va tajribalarini bir-biriga taqdim etishadi, bu esa yangi g'oyalar va innovatsiyalar paydo bo'lishiga olib keladi; ikkinchidan, kross-madaniy yondashuvlar har bir madaniyat o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lishi sababli, turli madaniyatlardan kelgan olimlar birgalikda ishlaganda o'z uslublarini birlashtirib, muammolarga yangicha qarashlar ishlab chiqishlari mumkin; uchinchidan, yangi metodologiyalar ilmiy tadqiqotlarda turli metodologiyalar va yondashuvlar mavjud bo'lgani uchun migratsiya orqali tadqiqotchilar yangi metodlarni o'rganish va qo'llash

imkoniyatiga ega bo'ladilar; to'rtinchidan, tadqiqot sohaslarining kengayishi madaniy xilma-xillik ilmiy tadqiqotlarni kengaytiradi, chunki tadqiqotchilar yangi sohalarda hamkorlik qilish va yangi masalalarni tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar; beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va hamkorlik turli madaniyatlardan kelgan olimlar o'zaro aloqalar o'rnatish orqali global ilmiy hamjamiyatni yaratadilar, bu esa ilm-fan rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ilmiy migratsiya orqali madaniyatlararo muloqot va hamkorlik ilm-fan va texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi va global muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash imkoniyatlarini oshiradi.

Migratsiya jarayonlari ilmiy faoliyatda diversifikatsiyani ta'minlaydi. Turli mamlakatlardan kelgan olimlar va tadqiqotchilar o'z madaniyati, tajribasi va bilimlarini olib keladi, bu esa ilmiy muhitda yangiliklar va innovatsiyalarni keltirib chiqaradi. Natijada, ilmiy tadqiqotlar ko'proq interdisiplinar yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari ham muhim ahamiyatga ega. Aholining ko'chishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, iqtisodiy faoliyat kengayadi va ijtimoiy struktura yangilanadi. Ushbu omillar ilmiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki kuchli iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik ilm-fan sohasidagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 32-modda Toshkent 2023-yil
2. Sh.Mirziyoyev "Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"// Qonunchilik bazasi PF-210-son 2023 yil 21 dekabr
3. Зайончковская Ж.А. Миграция населения из стран Центральной Азии. В книге: Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Социальные, правовые и гендерные аспекты. – Ташкент:
4. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. – Toshkent,2022.
5. Parmonov F., To'rayev Sh., Daminov I. Migratsiya: musofir vatangadolar. – Toshkent: "Sano-standart" nashriyot, 2015. – 112 b.
6. Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. // Социология фанлари номзоди диссертация автореферати. – Т., 2012.